TURKISH JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH

Volume I Issue III ISSN:2148-5135



“LATOFAT DO’KONIDAGI QOTILLIK” ASARI INSON TABIATINING QORONG’U QIRRALARI TASVIRI

Boymurodova Zilola Otabek qizi

Turon universeteti Filologiya tillarni o’qitish o’zbek tili yo’nalishi 4-kurs talabasi

ARTICLE INFO:

Received:06.11.2026
Revised: 07.11.2026
Accepted:08.11.2026

KEY WORDS:

Alisher Ibodinov, “Latofat do‘konidagi qatl”, detektiv qissa, badiiy obraz, ahrorjon, konflikt, latofat, risolat, inson ruhiyati, nafs va xiyonat, sirli voqealar, hayotiy saboqlar, adolat va jazo.

ABSTRACT

Ushbu maqolada o‘zbek detektiv nasrining yorqin namunalaridan biri bo‘lgan Alisher Ibodinovning ““Latofat” do‘konidagi qatl” qissasini o‘quvchi nigohi va samimiy idroki orqali tahlil qilinadi. Asar markazida oddiy qishloq yigiti Ahrorjonning shahar muhitiga kelib qolishi, “Latofat” nomli do‘konda boshlangan sirli va fojiaviy voqealar, nafs, xiyonat hamda inson ruhiyatidagi og‘ir burilishlar yotadi. Maqolada asarning voqealari, obrazlar Ahrorjon, Latofat, tog‘a va tergovchilar, detektiv janrning o‘ziga xosligi va hayotiy saboqlar oddiy, tushunarli va keng ko‘lamda bayon etilgan.

Kitob o‘qishni yaxshi ko‘radigan har qanday inson qo‘liga detektiv asar olsa, darhol sir-asrorlarga boy, oxirigacha nima bo‘lishi qiziq bo‘lgan olamga sho‘ng‘ib ketadi. Yaxshi yozilgan detektiv asar faqatgina “jinoyatchi kim?” degan topishmoqli savolga javob beribgina qolmay, inson qalbining eng tub-tubidagi yashirin narsalarni, yaxshilik bilan yomonlikning kurashini ko‘rsatib beradi.

Alisher Ibodinovning **“**Latofat” do‘konidagi qatl qissasini muallif murakkab so‘zlardan qochib, oddiy va tushunarli tilda hayotiy muhitni, odamlarning dardi, orzusi va xatolarini juda ishonarli qilib yozgan. Bugungi kunda yengil yo‘l bilan pul topish, mehnat qilmasdan tezda boyib ketish ilinjida yurgan tengdoshlarimiz yoki yoshlar uchun Ahrorjonning taqdiri ulkan saboq bo‘lishi lozim. Biz qaysi muhitga tushishimiz yoki qanday sinovlarga duch kelishimizdan qat'i nazar, vijdonimizni, insoniy qiyofamizni va ota-onamiz bergan tarbiyani aslo yo‘qotmasligimiz kerak. Hayotda har bir bosayotgan qadamimizni kelajagimiz uchun mas’uliyat bilan chuqur o‘ylab tashlashimiz zarurligini ushbu kitob yana bir bor yodimizga soladi.

T.Boboyevning badiiy obraz haqidagi qarashlaridan kelib chiqib, qahramonni faqat tashqi xususiyatlari yoki ayrim xatti-harakatlari bilan baholash yetarli emasligini ta'kidlash mumkin. Badiiy obraz insonning individual belgilari orqali muayyan ijtimoiy va ma'naviy muammolarni umumlashtirish imkonini beradi.[1] Shu nuqtayi nazardan, Alisher Ibodinov qissasidagi Ahrorjon obrazi ham oddiy qishloq yigitining tasviri bilangina cheklanmaydi. Uning oilasini ta'minlash maqsadida shaharga kelishi, yangi muhit ta'sirida o'zgarishi va oxir-oqibat jinoyat bilan bog'liq vaziyatga tushib qolishi insonning hayotiy tanlovlari hamda ma'naviy mas'uliyati masalasini yuzaga chiqaradi.

Asarning bosh qahramoni Ahrorjon — hamma qatori oddiy hayot qiyinchiliklarini ko'rgan, oilasini boqish uchun halol mehnat qilmoqchi bo'lgan sodda qishloq yigiti. U o'qishni davom ettira olmagach, armiyadan qaytib darhol uylanadi va zimmasiga oila tashvishi tushadi. Qishloqda doimiy ish topilmagach, tog'asining yordami bilan shaharga kelib, «Latofat» nomli kichik do'konda sotuvchi bo'lib ishlay boshlaydi. Mana shu yerdan boshlab Ahrorjonning hayotida keskin burilish yuz beradi. Shaharning yaltiroq hayoti, oson pul topish imkoniyatlari uning boshini aylantiradi. Kitobxon sifatida Ahrorjonga qarab goh achinasiz, goh uning soddaligidan g'azablanasiz. U aslida yomon bola emas, ota-onasini hurmat qiladi, uyiga ro'zg'or tashiydi. Lekin tezroq boyib ketish, yengil yo'l bilan pul topish istagi uni sekin-sekin o'z domiga tortib boradi. Kitobxon sifatida yondashadigan bo'lsak,Ahrorjonning eng katta xatosi — u atrofidagi insonlarni tanishda juda yanglishdi, yengil yo'l bilan topilgan boylik oxiri insonni tubanlikka , yomon holatga olib kelishini o'z vaqtida tushunib yetmadi. U o'zining qishloqdagi sokin va halol turmushini qadrlamay, shaharga borib ,aldanib qoldi.

D.Quronov badiiy obrazni san'atkorning borliqni anglash va unga munosabatini ifodalash shakli sifatida izohlaydi.[2] Bu yondashuv Latofat obrazini tahlil qilishda ham muhimdir. Latofat tashqi jozibasi bilan Ahrorjonni o'ziga jalb etadi, biroq uning jinoyat olami bilan bog'liq muhitda tasvirlanishi obrazning tashqi ko'rinishi bilan ichki mazmuni o'rtasidagi farqni yuzaga chiqaradi. Demak, obrazning badiiy vazifasi faqat qahramonni tanishtirish emas, balki uning atrofidagi muhit, qadriyatlar va ziddiyatlarni ochishdan ham iborat.

Latofat kim o'zi? (Baxt izlagan, lekin adashgan ayol)
Asarga nom bergan va voqealar markazida turgan yana bir asosiy qahramon — bu Latofat. U tashqi ko'rinishidan o'ta go'zal, muomalasi yoqimli, suhbatdoshini darhol o'ziga rom eta oladigan sirli ayol. Lekin uning hayotiga diqqat bilan nazar solsangiz, qanchalik baxtsiz va noto'g'ri yo'lga kirib qolganini tushunasiz.

Latofat shunchaki oddiy yengil-elpi ayol emas, balki kattakon jinoyat olami, noqonuniy savdo va narkobiznes to'dalarining qo'g'irchog'i edi. Ahrorjon uni ko'rishi bilan aqldan ozgandek sevib qoladi. Uning har bir so'zi, harakati yigitning ko'zini ko'r qiladi. Hatto o'zining uyidagi halol xotini Risolatni, bolalarini unutib, butun vujudi bilan Latofatga bog'lanib qoladi. O'qib o'tirib o'ylaysiz: inson muhabbat deb atalmish tuyg'uga aldanib, qanday qilib o'zining butun borlig'ini,

sha'nini va qadr-qimmatini yo‘qotib qo‘yishi mumkin? Muallif buni shunaqangi ta’sirli va ishontiradigan qilib yozganki, tom ma’noda o‘quvchini hayratga soladi.

Meni eng ko‘p o‘ylantirgani — Latofatning oxirida yozgan maktubi bo‘ldi. Unda ayolning ham o‘ziga yarasha og‘ir qismati, ko‘rgan kulfatlari borligi ochiladi. Lekin bu uning xatolarini oqlamaydi. Har bir inson o‘z tanlovining egasidir, Latofat ham o‘z vaqtida to‘g‘ri yo‘lni tanlaganida edi, uning taqdiri bunchalik fojiaviy yakun topmagan bo‘lardi.

G. Xazagerov va I. Lobanov konfliktni asardagi qarama-qarshi kuchlar hamda qadriyatlar to‘qnashuvi bilan bog‘laydi; ularning nazariyasida konflikt syujetni harakatga keltiruvchi muhim omil sifatida talqin etiladi. Bu qarash qissadagi ziddiyatlarni bir necha qatlamda ko‘rishga imkon beradi[3]: Ahrorjonning oilaviy burchi bilan shaxsiy istaklari o‘rtasidagi qarama-qarshilik ichki ziddiyatni yuzaga chiqarsa, uning jinoyat gumoni ostida qolishi qahramon va tashqi muhit o‘rtasidagi to‘qnashuvni kuchaytiradi. Latofat atrofidagi sirli voqealar esa boshqa personajlarning manfaatlari va yashirin maqsadlarini namoyon etadi. Natijada konflikt faqat jinoyat sirini ochish vositasi bo‘lib qolmay, qahramonlarning xarakterini ochuvchi badiiy unsurga aylanadi.

Asarni o‘qib o‘tirib, faqatgina Latofatga emas, qishloqda uyda keksayib qolgan ota-ona va go‘daklari bilan yolg‘iz qolgan Ahrorjonning halol xotini Risolatga ham ich-ichidan achinasiz. Risolat — o‘zbek ayolining sadoqat, sabr va to‘g‘rilik timsoli. U erining shaharga ishlagani ketishidan ko‘zlari to‘rt bo‘lib kutadi, kelishini sog‘inadi. Lekin erining shaharda boshqa bir ayolga ko‘ngil qo‘yib, o‘z oilasini unutib qo‘yganidan bexabar yashaydi. Bu qismni o‘qiyotganda o‘ylaysizki: birgina insonning yengiltakligi, nafs ortidan quvib oilasini unutishi qanchadan-qancha begunoh qalblarning, xususan, uyda o‘tirgan xotin va bolalarning azob chekishiga sabab bo‘ladi. Muallif bu obraz orqali oilaning qadrini, xiyonatning naqadar og‘ir zarba ekanini juda ta’sirli ochib bergan.

Asarning eng cho‘qqi nuqtasi, hamma uchun shaxsan ,men uchun ham qiziq joyi — o‘sha mash’um «Latofat» do‘konida sodir bo‘lgan qotillikdir. Ertalab do‘konga kelib, ichkarida Latofatning jonsiz tanasiga duch kelgan Ahrorjonning ahvolini tasavvur qilishning o‘zi qiyin. Shu lahzadan boshlab kitob chinakam detektiv tus oladi va voqealar shiddat bilan rivojlana boshlaydi.

Hamma Shubha, tabiiyki, Ahrorjonning o‘ziga tushadi, chunki u marhumaning yaqini edi, voqea joyidan topilgan dalillar ham unga qarshi gapirar edi. Tergov jarayonlari, prokuror Odilovning haqiqatni yuzaga chiqarish uchun qilgan mashaqqatli harakatlari kitobxonni oxirigacha intizorda ushlab turadi. Eng achinarlisi, bu jinoyatning ortida oddiy rashk emas, balki xalqaro miqyosdagi qora biznes va Ahrorjonning o‘z tog‘asi bosh bo‘lgan razil kimsalar turgani ma’lum bo‘ladi. Latofatning o‘limidan oldin yozib qoldirgan maktubi esa barcha sir-asrorlarni, uning boshidan kechirgan azoblarini oydinlashtiradi. Bu qismni o‘qiyotganda inson adolat baribir qaror topishiga, qancha yashirin sirlar bo‘lmasin, vaqti kelib yuzaga chiqishiga yana bir bor amin bo‘ladi.

Alisher Ibodinovning ushbu asarini o‘qib turib, faqat bitta jinoyat haqida emas, balki jamiyatimizda uchrab turadigan ba'zi yomon illatlar haqida ham jiddiy o‘ylab qoldim. Muallif

qahramonlarning ichki kechinmalarini, ruhiy tushkunliklarini, nafs yo‘lida o‘zini yo‘qotib qo‘yish holatlarini juda yaxshi ochib bergan.

Hozirgi kunda ham ba'zi yoshlar mehnat qilmasdan, tezroq boyib ketish yoki yengil yo‘l bilan pul topish ilinjida turli yomon yo‘llarga kirib qolayotganini ko‘ramiz. Ahrorjonning taqdiri ana shunday yoshlar uchun katta saboq bo‘lishi kerak. Inson qaysi muhitga tushishidan qat'i nazar, o‘zining vijdonini, insoniy qiyofasini va ota-onasi bergan tarbiyasini yo‘qotmasligi lozim. Tog‘a timsolida esa o‘zining yaqin jiyanini ham moddiy manfaat yo‘qotishdan qaytmaydigan, faqat nafs quliga aylangan kimsalarning qiyofasini ko‘ramiz. Bu esa oiladagi oqibat, qarindoshchilik rishtalari pul oldida yo‘qolib ketishi mumkinligidan dalolat beradi — bu esa jamiyatimiz uchun eng achinarli holatdir.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Ibodinovning «“Latofat” do‘konidagi qatl» qissasi oddiy bir qotillik va sarguzasht haqidagi hikoya emas, balki inson qalbining qorong‘i va yorug‘ tomonlarini, jamiyatdagi og‘riqli nuqtalarni ochib beruvchi juda ibratli va teran asardir. Uni o‘qib chiqib, har bir o‘quvchi o‘z hayotiga bir bor nazar tashlaydi, “men qanday yashayapman, qadamlarim to‘g‘rimi?” deb chuqur o‘ylab qoladi. Asar o‘zining hayotiyligi, o‘tkir syujeti va ta’sirchanligi bilan har doim kitobxonlar qalbidan chuqur joy egallab qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Boboyev T.** Adabiyotshunoslik asoslari. — Toshkent: «O‘zbekiston» nashriyoti, 2002. (Asarning syujeti, konflikt turlari va obrazlar tizimini nazariy jihatdan tahlil qilish uchun foydalanilgan adabiyot).
2. **Quronov D.** Adabiyot nazariyasi asoslari. — Toshkent, 2019.
3. **Xazagerov G. G., Lobanov** Основы теории литературы : учебник / Г.Г. Хазаге-ров, И.Б. Лобанов. - Ростов н/Д : Феникс, 2009. — 316 с.
4. **Ibodinov A.** «Latofat» do‘konidagi qatl (Qissa). — Toshkent: «Sharq» nashriyoti, 2001. Asarning asosiy badiiy manbasi — voqealar va qahramonlar harakati shu kitobdan olindi).